



O‘ZBEKISTON ISTIQBOLI UCHUN MA’NAVIY-MA’RIFIY ISLOHOTLARNING MUHIM O‘RNI

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Jumakulov Najmiddin Ibroimovich
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ibroimov Ruslan Najmiddin o‘g‘li*

Annotatsiya. Demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida barcha sohalarda o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g‘oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda insonlar o‘z qobiliyati va ehtiyojlarini to‘la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan ma’naviy – ma’rifiy islarni takomillashtirishga katta e’tibor berildi.

Kalit so‘z va iboralar. Ma’naviyat, yoshlar, ijtimoiy, islohot, tarbiya, targ‘ibot, tarbiya

Hozrgi biz yashayotgan asr axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo‘lmoqda. Chunki asrimizda inson eshitayotgan, ko‘rayotgan barcha-barcha narsalar uning istaklarini, didini o‘zgartirishga, fikriga ta’sir qilishga yo‘naltirilgan. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha, boringki, o‘qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkuraviy yukka ega - ularda muayyan g‘oyalar targ‘ib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydi» degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko‘zga ko‘rinmas qudratli targ‘ibot kuchlari kishini hamma yerda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi – insonni nimagadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og‘dirish. Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi. Diniy arboblarning o‘z diniga e’tiqod qilishga chaqiradi. Xalqaro maydonda ba’zi davlatlar o‘zining «katta og‘a» ekanini uqtirishga harakat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ‘ibot mashinasiga ega bo‘lishga intilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Targ‘ibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini, balki siyosatda ham, ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Demak, rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan voz kechmagan.



Shu bilan birga, globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda.[1] - deb ta'kidlaydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev.

Hozirgi globallashuv davrida axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi omillardan biriga aylangan. Shuning uchun axborot texnologiyasi yuksalgan davlatlarda bu sohadagi ustunlikdan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy tajovuzlarni amalga oshirish yo'lida foydalanib qolish vasvasasi yo'q emas.

Globalashuv hayot sur'atlarining tezlashuvini ko'rsatmoqda. Barcha sohalarda qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlar axborotga ham chuqur ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan birgina kitob bosishni olib qarydigan bo'lsak, agar dastgoh kashf etilgan dastlabki paytlarda Yevropada yiliga taxminan 1000 nomdagi kitob chop etilgan bo'lsa, hozirda kuniga 1000 nomdagi kitob chop etilmoqda.[2] 1950 yilda kashf etilgan komp'yuter esa bilimlarni egallash jarayonini tezlashtirib yubordi. Umuman yangi texnologiyalarning hayotga joriy etirish oqibatida oxirgi 100 yil mobaynida siljish tezligi 102 marta, muloqat tezligi 107 marta o'sdi.[3] Hozirgi kunda bundan ham ko'p miqdorni tashkil etadi.

Bu narsa axborotdan foydalanib kishilar ongini boshqaruvchilarga katta yo'l ochdi. G'oyaviy manipulyatsiya kuchaydi. Axborotni tanlab o'qish, undan qanday foydalanish lozimligini hamma ham bilavermaydi. Shuning uchun ham birinchi prezident Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubxasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi" [4] -deb yozadi. Shu sababli bolalarimizga axborotni baxolash, uni tanlash haqida chuqur bilim berilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda kuchli tashviqot zarur.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlash amalga oshirilayotgan islohatlarni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini ta'minlash sharoitida yosh avlodni, jumladan o'quvchilarni har tomonlama yetuk, zamon talabiga to'la javob beradigan yangi tipdagi yuqori malakali mutaxassis, shu bilan birga ma'naviy va ma'rifiy, axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan barkamol, Vatanga, el-yurtga sadoqatli kishilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.



Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak[5], deb ta'kidlaydi Prezident Sh.Mirziyoyev

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning darajasi fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liq. Mustaqillik davrida tarixan qisqa muddat ichida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy mafkuraviy sohalarda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Ma'rifiy-ma'naviy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatildi. Ma'naviyati yuksak millat va davlatning kelajagi buyuk bo'lishi mumkinligi omma ongiga singdirildi. Tarixiy, madaniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga jamiyatni poklantiruvchi, kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil, deb qarala boshlandi.

Hozirgi kunda bajarilishi lozim bo'lgan eng ustuvor vazifa xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'lni tanlashdir.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida muttasil ravishda bajarib kelinmoqda.

Chunonchi, istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayotidagi bosh vazifa – eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etish bo'lgan bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish. Bir so'z bilan aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

Jamiyat ijtimoiy-madaniy, siyosiy barqarorligini ta'minlashda milliy istiqlol g'oyasining roli tobora ortib borayotgani kabi, boshqa tomondan, mazkur qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib etishda madaniyat muassasalarining o'rni yanada oshmoqda.

Ta'kidlash lozimki, hayot talabiga binoan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Bunda ta'lim tizimi, muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat



va istirohat bog‘lari ommaviy madaniyat muassasalari sifatida millionlab aholiga ma‘naviy-ma‘rifiy xizmat ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari”[6] tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta‘lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat‘iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida ta‘lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma‘naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta‘lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta‘limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma‘naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. - O‘zbekiston nashriёти, 2021. 464 бет.
2. Toffler E. Shok budushego M. 2004 Uz str.
3. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. T.: “Ma‘naviyat”, 2008 51-bet
4. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. Toshkent -2008. Manaviyat nashriyoti. 176 bet [ISBN 978-9943-04-075-5](#)
5. [Prezident: Ma‘naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak \(president.uz\)](#)
6. ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ ДАН - МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ САРИ ТОШКЕНТ - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2020